O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

13.00.07 - “TA’LIMDA MENEJMENT” IXTISOSLIGI BO‘YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIKKA (DSc) KIRISH IMTIHONI DASTURI

Andijon – 2026

KIRISH

Oliy ta’limni takomillashtirish va rivojlantirish, zamonaviy talablarga mos ta’lim tizimini yaratish va kadrlarni tayyorlash borasida qabul qilinayotgan qonun, farmoyish va qarorlar dunyo va mahalliy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilayotganligi, ushbu yo‘nalishda ilmiy ishlarga bo‘lgan qiziqishni ham oshirayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Olib borilayotgan tadqiqotlarda ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining marketing, moliyaviy va iqtisodiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur dastur 13.00.07 — “Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-637-son), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida tayyorlandi.

Dasturda 70411201-Menejment (ta’lim menejmenti) magistratura mutaxassisligi o‘quv rejalarining mutaxassislik fanlari blokida qayd etilgan fanlarning o‘quv dasturlari asosida talabgorlar e’tibor qaratishi zarur bo‘lgan talablar berilgan. Shuningdek, ushbu fanlar doirasida asosiy tushunchalar, atamalar va fanning asosiy mazmunini jamlagan mavzular tartiblangan. Xususan, fanlar doirasida vatanimiz boshqaruvning qadimgi zamonlardan to hozirgi kunga qadar bosib otgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘lini, boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy ahamiyatini o‘rganish hamda o‘qitish metodologiyasi, mamlakatimiz modernizasiyasi va iqtisodiyoti tamoyillarining tarixiy asoslari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyalashuvini jadallashtirish kabi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzular o‘rin olgan.

13.00.07 – “Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka kiruvchi talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qu’yidagi talablar qo‘yiladi. ***Talabgor***:

–ta’lim menejmenti masalalarining mazmun va mohiyati;

–ta’lim sohasida ijtimoiy hamkorlik yo‘llari;

–ta’lim muassasasini boshqarishda ijtimoiy omillar;

–rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim tizimini boshqarish tajribasi kabi ***tasavvurlarga ega bo‘lishi***;

–oliy ta’limni boshqarish borasidagi davlat siyosatining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini;

–oliy ta’limni boshqarishning nazariy asoslarini;

–O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalarining zamonaviy tizimini;

–O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan oliy ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini;

–oliy ta’limi tizimi menejmenti, uning vazifasi, tamoyillari, boshqaruv yo‘llari va usullarini;

–oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish yo‘llarini;

–o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy jihatdan boshqarish yo‘llarini;

–ta’lim iqtisodiyotida innovasion boshqaruvni amalga oshirishni;

–oliy ta’lim tizimida marketing faoliyatini boshqarishni;

–oliy ta’lim iqtisodiyoti va menejmenti bo‘yicha amaliy takliflar tayyorlashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

–oliy ta’lim tizimi marketing faoliyatini boshqarish;

–oliy ta’lim iqtisodiyotiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;

–oliy ta’lim muassasalarini moliyalash vositalarini anglab yetish;

–jamiyatni demokratlashtirish borasida xalqaro tajribani o‘rganish;

–oliy ta’limni rivojlantirish davlat ta’lim standartlarini o‘rganish;

–ta’lim iqtisodiyoti menejmentida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish ***ko‘nikmalariga ega*** bo‘lishi;

–ta’lim iqtisodiyoti va menejmentida iqtisodiy o‘sishning ta’siri, oliy ta’limni boshqarishda mustaqil qarorlar qabul qila olish, ilmiy mushohada yurita olish, oliy ta’lim tizimiga innovasiyalar, investisiyalarni joriy etish va ulardan foydalana olish ***malakalariga ega bo‘lishi*** kerak.

13.00.07 – “Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilikka qabul imtihonini o‘tkazishda qo‘llanishi ko‘zda tutilgan nazorat savollari:

1. Ta’lim menejmenti tushunchasi. Umumfalsafiy qonunlar va pedagogik kategoriyalar boshqaruv metodologiyasining asosi ekanligi.
2. Ta’lim muassasalarini boshqarish sohalari: pedagogik jarayonni boshqarish; ta’lim xizmatlari bozorini boshqarish; moliyaviy boshqarish; xodimlarni boshqarish.
3. Boshqarish sohalari qonunlari va uning ahamiyati.
4. Ta’lim muassasalarini boshqarishning asosiy tamoyillari: yakkaboshchilik va kollegiyalik; ilmiylik; rejalilik; boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirish; kadrlarni tanlash va joylashtirish; shaxsiy tashabbus; javobgarlik va tavakkalchilik.
5. Innovasion faoliyat tushunchasi. Bo‘lg‘usi mutaxassis kadrlarni innovasion faoliyatga tayyorlash.
6. Ta’lim muassasalarini boshqarishga tizimli-vaziyatli yondashuv.
7. Ta’lim muassasasi va tashqi muhit. Tashkiliy-pedagogik maqsad va madaniyat: tayanch qadriyatlar, strategik vazifalar va qisqa muddatli rejalar.
8. Ta’lim muassasasi resurslari: tashkiliy-moddiy va insoniy.

9. Ta’lim muassasalari, tashkilotlari va tizimi haqida tushuncha.

10. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi va uning turlari.

11. Ta’lim tizimi yagona o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida.

12. Ta’lim muassasalari va tashkilotlari tashkiliy-pedagogik tizim sifatida.

13. Pedagogik jarayon (ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti) tashkiliy metodik tizim sifatida va uning mohiyati.

14. Ta’lim muassasalari va tashkilotlarini boshqarishga tizimli va vaziyatli yondashuvlarning mohiyati.

15. Ta’lim muassasalarini boshqarishning tashkiliy tuzilishi

16. Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi (bo‘g‘inlari, bosqichlari) va tuzilmalari (ko‘p, uch va ikki bosqichli (bo‘g‘inli).

17. Boshqaruvda vertikal va gorizontal aloqalar.

18. Ta’lim muassasalarini boshqarish tashkiliy tuzilmasining asosiy turlari: chiziqli va funksional tuzilmalar.

19. Boshqaruv tashkilotlari: yuqori, quyi va teng huquqli tashkilotlar.

20. Ta’lim muassasalari (maktabgacha ta’lim tashkilotlari; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus; oliy; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta’lim), ularning tashkiliy tuzilmasi.

21. Ta’lim muassasalarida jamoat boshqaruvi.

22. Boshqaruv usullari haqida tushuncha. Ta’lim muassasalarini boshqarish usullari: iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, psixologik va xuquqiy.

23. Ta’lim muassasalarini boshqarishning tashkiliy-farmoyishli usullari va ularning turlari: tashkiliy-barqarorlashtiruvchi (ma’muriy ta’sir), farmoyish (buyruq, farmoyish, ko‘rsatma va h.k.) va intizom.

24. Ta’lim muassasalarini boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari va ularning turlari: ijtimoiy tartibga solish (nizomlar, shartnomalar, o‘zaro majburiyatlar, xodimlarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy extiyojlarni qondirish va h.k.); psixologik (kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, mehnatni insoniylashtirish, malakali kadrlar tanlash va ularni o‘qitish va x.k.lar).

25. Ta’lim muassasalarini boshqarish funksiyalari

26. Ta’lim muassasalari boshqaruv jarayonining mazmuni (maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilish) haqida tushuncha.

27. Ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni boshqarish, ta’lim xizmatlari bozorini boshqarish, moliyaviy boshqarish va xodimlarni boshqarish funksiyalarining o‘ziga xosligi.

28. Ta’lim muassasalarida boshqaruvning asosiy vazifalari: rejalashtirish; tartibga solish; tashkil etish; rag‘batlantirish; nazorat va hisobga olish; undash. Ta’lim muassasalarini boshqarishning maxsus vazifalari.

29. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish

30. Ta’lim muassasalari, tashkilotlari va tizimida boshqaruv qarorlarining ahamiyati.

31. Karor – muqobil tanlov ekanligi. Boshqaruv qarorlari va ularning turlari (rejalashtirish, faoliyat yuritishni tashkil etish, asoslash va nazoratga oid qarorlar).

32. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni haqida tushuncha.

33. Sof intuitiv karorlar. Muloxazaga asoslangan qarorlar.

34. Ta’lim muassasalarida marketing xizmatini boshqarish

35. Ta’lim sohasidagi marketing – mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo‘lgan talab va extiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat ekanligi.

36. Marketing faoliyatining tarkibi: ta’lim xizmatlari bozorini o‘rganish; davlat va jamiyat (iste’molchi) buyurtmasiga ko‘ra bitiruvchilar (mutaxassis kadrlar) tayyorlashni rejalashtirish, ta’lim xizmatlari bozorini egallash; reklamani amalga oshirish; bitiruvchilar (mutaxassis kadrlar)ni iste’molchiga yetkazib berish.

37. Ta’lim xizmatlari marketingi turlari: konversion marketing (talabni yaratish); rag‘batlantiruvchi marketing (talabni rag‘batlantirish); remarketing (talabni oshirish); sinxromarketing (talabni muvozanatlash); qo‘llovchi marketing (talabni qo‘llash); demarketing (talabni kamaytirish); qarshilik qiluvchi marketing (talabni tugatish).

38. Ta’lim xizmatlari marketingi strategiyasi, uning bosqichlari.

39. Ta’lim xizmatlari bozorini egallashning mohiyati.

40. Oliy ta’lim muassasasi xarajatlarini rejalashtirish

41. Ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatishga ketadigan xarajatlarni rejalashtirish.

42. Talabalar tarkibini aniqlash. Ish haqi va stipendiya. Devon va xo‘jalik sarflari. Xizmat safari va xizmat bilan bog‘liq qatnovlar.

43. Ta’lim, talabalar ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-tadqiqot ishlari va resurs markaziga kitob sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar.

44. Moddiy texnika bazasi harajatlari. Ta’lim sarflarining hisob-kitobi. Ilmiy texnikaviy mahsulot yaratish bo‘yicha shartnoma.

45. Menejment tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha.

46. Tashkiliy tuzilmalar turlari.

47. Boshqarish jarayoni – qarorlar qabul qilish maqsadida axborot to‘plash, uzatish va qayta ishlash, buyruqlar ko‘rinishida axborot berish va uni ijrochilarga yetkazishdan iborat ekanligi.

48. Ta’lim muassasalarini boshqaruv tizimida umumiy axborot turlari: tezkor, statistik, moliyaviy, iqtisodiy, hisob-kitob, ta’minot, kadrlar bo‘yicha, pedagogik-texnologik, marketing, ijtimoiy va boshqalar.

49. Ta’lim muassasalarida kelib chiqish manbasiga ko‘ra (tashqi va ichki), yo‘nalishiga ko‘ra (boshlang‘ich va boshqaruvchi), barqarorlik darajasiga ko‘ra (barqaror, shartli-barqaror, o‘zgaruvchan) axborotlar, ularning mohiyati.

50. Ta’lim muassasalarida axborotlarni ro‘yxatga olish va saqlash vositalari.

51. Ta’lim muassasalarida oddiy va murakkab axborot tizimlari.

52. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) va uning vazifalari:
53. Ta’lim muassasalari va tashkilotlarida boshqaruv texnikasi va tasnifi haqida tushuncha.
54. Ta’lim muassasalarini boshqaruv jarayonida axloqiy, huquqiy,iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va estetik me’yorlarga rioya qilish zaruriyati.
55. Boshqaruv madaniyati tushunchasi.
56. Ta’lim muassasalarida boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlari.
57. Menejerlar madaniyati.
58. Boshqaruv jarayoni madaniyati.
59. Mehnat sharoiti madaniyati.
60. Xujjatlar yuritish madaniyati.
61. Menejer madaniyati komponentlari.
62. Mmenejer madaniyatining umumiy darajasi.
63. Boshkaruv ilmini o‘zlashtirishi; boshkaruv san’atini egallashi;
64. Menejerning shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlari.
65. Menejerning boshkaruv uslubi.
66. Boshqaruv jarayoni madaniyati komponentlari.
67. Boshkaruvning zamonaviy texnologiyasi.
68. Boshqaruv mehnatini maqbul tashkil etish.
69. Boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish.
70. Tashrifchilarni qabul qilish, telefon orqali so‘zlashish, majlislar o‘tkazish.
71. Mehnat sharoiti madaniyati komponentlari: ish (o‘quv-tarbiya) jarayoni madaniyati;
72. Xizmat ko‘rsatish madaniyati; jixozlash; shovqin.
73. Hujjatlar yuritish madaniyati komponentlari:
74. Ta’lim muassasalarida nizolarni boshqarish
75. Rahbarning ish uslubi.
76. Menejmentda motivlashtirish tushunchasi va nazariyasi.
77. Liderlik va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
78. Boshqarish tamoyillari va uslubi.
79. Rahbar va hokimiyat. Rahbar va vaqt.
80. Boshqarish vositalari. Ishontirish boshqarishning asosi sifatida.
81. Boshqaruv qarorlari menejer ishining samaradorligi mahsuli sifatida.
82. Xodimlarning ijtimoiy xulqatvorini rag‘batlantirish.
83. O‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘z-o‘zini nazorat qilish boshqarish vositasi.
84. Mehnatni rag‘batlantirish tartibi.
85. Ta’lim tizimini moliyalash mazmuni.
86. Ta’lim muassasalari byudjetdan tashqari mablag‘ining shakllanishi.
87. Ta’lim muassasalarini byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarish.
88. Ta’limning Davlat ta’lim standarti.
89. Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar klassifikatori.
90. O‘quv reja, fan dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar.
91. O‘quv reja, fan dasturlarini ishlab chiqish.

92. O‘quv yuklamalarning me’yoriga keltirilishi.
93. Ta’lim oluvchilar biliminibaholash mezonlarining ishlab chiqilishi.
94. O‘quv-tarbiya jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlanishi.
95. Umumta’lim va kasbiy tayyorgarlik.
96. Malakali mutaxassislarga talabni belgilash.
97. Ta’lim xizmatlarini tashkil etish prinsiplari.
98. Ta’lim tizimida marketing faoliyati xususiyatlari.
99. Milliy ta’lim xizmatlari bozorining shakllanish tendensiyalari.
100. Kadrlar bozorini rivojlantirishda ta’lim xizmatlarining amaliy jihatlari.
101. Ta’lim muassasalari attestasiyasi va akreditasiyasi.
102. Ta’lim muassassi xodimlari attestasiyasi.
103. Ta’lim muassasalari reytingini aniqlash.
104. Ta’lim muassasalarini lisenziyalash. Sertifikatlashtirish.
105. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tizimi Ta’lim sohasida test sinovin xizmati (ETS – Educational Testing Service, AQSh). Kanada statistika markazi (Statistics Canada). O‘quv yutuqlarini baholash xalqaro Assosiasiyasining sekretariati (IEA, Niderlandiya). O‘quv yutuqlarini baholash xalqaro Assosiasiyasining natijalarni qayta ishlash markazi (DPC IEA – Data Processing Center IEA, Germaniya). Yaponiya ta’lim sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti (NIER). Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha baholash xalqaro tadqiqot TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study). O‘quvchilarning ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturi PISA (Programme for International Student Assessment). Matnni o‘qish va tushunish sifati xalqaro tadqiqoti PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). Ta’lim berish va o‘qitish tizimlari bo‘yicha xalqaro tadqiqot (TALIS).

13.00.07 – “Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha yozma ishlarni baholash mezoni

Mazkur ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovi mavjud o‘quv dasturi asosida tuzilgan variantlar savollariga og‘zaki ravishda javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Har bir variantda **4 tadan** savol bo‘lib, mazkur savollar nomzodlarning bakalavriat, magistratura va mustaqil izlanuvchilikda o‘qigan fanlari hamda tayyorlagan ilmiy-tadqiqot ishi yuzasidan tuziladi va jami javoblar «0» baldan «100» ballgacha baholanadi.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollar uchun maksimal **15 balldan,** 4-savol uchun maksimal **55-ball** etib belgilangan.

Variantdagi 1-, 2-, 3-savollarga berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda

umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **12-15 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **8-11 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **4-7 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-5 ballgacha** qo‘yiladi.

№	**Umumiy ball**	**Baho**	**Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi**	**Xususiy ball**
1.	12-15	A’lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	14-15 13-14 12-13
2.	8-11	Yaxshi	Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	10-11 9-10 8-9
3.	4-7	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	6-7 5-6 4-5
4.	0-4	Qoni-qarsiz	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan.	0-4

Variantdagi 4-savol yuzasidan berilgan javoblarning mazmuniga qarab ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to‘liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, stilistik xatolarga yo‘l qo‘yilmagan holda umumiy xulosalar chiqarilgan bo‘lsa, **40-55 ballgacha** qo‘yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, javob to‘g‘ri berilgan, mavzular asoslangan. Ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, **25-39 ballgacha** qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan, savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan bo‘lsa **10-24 ballgacha** qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan, umuman javob berilmagan yoki noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan bo‘lsa **0-9 ballgacha** qo‘yiladi.

№	**Umumiy ball**	**Baho**	**Mustaqil izlanuvchilikka (DSc) kiruvchining bilim darajasi**	**Xususiy ball**
1.	40-55	A’lo	Berilgan savollar mazmunan aniq yoritilib mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berilishiga; Javoblar mantiqan yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega.	50-55 44-49 40-44
2.	25-39	Yaxshi	Javoblar to‘g‘ri berilgan va mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan; Javoblarda mustaqil izlanuvchilikka kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	35-39 29-34 25-29
3.	10-24	Qoni-qarli	Savollarga javobda masalaning mohiyatiga tushunilgan ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatilgan; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan tasavvurga ega biroq tahlil yetarli emas.	20-24 15-19 10-14
4.	0-9	Qoni-qarsiz	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob berilmagan; Noto‘g‘ri javob va ma’lumot berilgan.	0-9

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati
Asosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi-T.:O‘zbekiston, 2017.-46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ637-son. 2020 yil 23 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 7 fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, 2019 yil 8 oktyabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori, 2017 yil 27 iyul.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qarori. 2017 yil 22 may.
8. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
10. Heather Fry., Steve Ketteridge., Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. Third edition. This edition published 2009 by Routledge ,Inc.p 525.
11. Greg Light, Roy Cox, Susanna Calkins. Learning and Teaching in Higher Education. Los Angeles, London, New Dehli. 2014, 341 p.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Akimova O.B., Ismailova Z.K., Maxsudov P.M., Utkina S.N. Metodika professionalnogo obucheniya. – T.: Navro‘z, 2020.-146 s.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro‘ziyeva D.I., Usmonboyeva M.H. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.– Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. – 256 bet.
3. Fayzullayeva N.S. Islamov A. Ekonomika i menedjment v obrazovanii.TDIU 2019.
4. Fayzullayeva N.S. Ta’lim menejmenti. - T.: Fan va texnologiya, 2009.
5. Hakimova M.F., Musaxanova G.M. Kasbiy pedagogika –T.: TDIU, 2019, 324-bet.

6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv metodik qo‘llanma. /– Toshkent, 2015. –120 bet.
7. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. -T.: Moliya, 2002.
8. Tojiboeva D., Yoldoshev A. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: Aloqachi, 2018. -568 b.
9. Hakimova M.F., Mamarajabov Sh.E. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. – T.: Iqtisodiyot, 2021.-138 b.
10. Xodjayev A.A. va boshqalar. Ta’lim tizimini boshqaruvini takomillashtirishda monitoring roli: ilmiy-uslubiy qo‘llanma. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2014. -80 b.
11. Mamarajabov Sh.E. Ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish va baholash nazariyalari va metodlari (o‘quv qo‘llanma). –T.: Iqtisodiyot, 2021. -180 b.
12. Dustmuxammad X. Xalq ta’limi muassasalarini moliyaviy mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Iktisodiyot, 2015. – 205 bet.
13. Korznikova G.G.Menedjment v obrazovanii. Prakticheskiy kurs. - M.: Akademiya, 2008.
14. Kotler F., Keller K.L. Marketing menedjment. Uchebnik. Ekspresskurs. 3-ye izdaniye. – SPb.: Piter, 2012. –480 s.
15. Murtazayev S. Mehnat bozorida ta’limning roli. – T.: 2013. -156. Irmatov X, Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2008. -288 bet.
16. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –54
17. Michael J. Feuer., Robert E. Floden., Naomi Chudowsky., Judie Ahn. Evaluation of Teacher Preparation Programs. Copyright 2013 by the National Academy of Education. All rights reserved.Inc.p120. http://www.naeducation.org.
18. Pauline Davis.,Lani Florian. Teaching Strategies and Approaches for Pupils with Special Educational Needs: A Scoping Study. Copyright © Queen’s Printer 2004, Inc.p 87.
19. Tojiboyeva D. va boshq. Iqtisodiy pedagogika. -T.: Fan va texnologiya. – 2008. – 256 b.
20. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. - T.: O‘qituvchi, 2001.

Internet saytlari

1.www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2.www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari
ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.ereport.ru- Obzornaya informasiya po mirovoy ekonomike
4. www.stplan.ru- Ekonomika i upravleniye
5. www.catback.ru- Nauchnыye stati i uchebnыye materialы po ekonomike
6. studme/org/ -Uchebnыye materialы dlya studentov.
7. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi sayti.
8.www. stat.uz– O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi sayti.
9.http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus

ta’lim vazirligining rasmiy veb sayti.
10.http://www.tseu.uz – TDIU ning rasmiy veb sayti.http://www.alt-teachercert. org
11. http://www.tv5.org/
12. http://www.rfi.fr/
13. http://lefildubilingue. org/
14. http://www.cafepedagogique.net
15. http://vocabularyprofile.com
16.www.google.es
17.www.marco.ele
18.www.cervantes.es